

**BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA TA'SVIRIY SAN'ATNI
O'QITISH METODIKASI**

*Nizomiy nomidagi UzMPU 1-bosqich talabasi
Maxkamova Sevinch Bahodir qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va bolalarning ta'sviriy faoliyati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Boshlang'ich sinflarda bo'yoq bilan ishlash mashg'ulotlari va o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar haqida qayd etilgan

Kalit so'zlar: ta'sviriy san'at, ko'rgazmali qurol, rangtasvir, qat'iylik, qobiliyat, faollik

**METHODOLOGY OF TEACHING FINE ARTS TO PRIMARY SCHOOL
STUDENTS**

Annotaion: In this article, opinions are expressed about the specific features of teaching fine arts in elementary grades and children's creative activities. It is noted about the classes in working with paint and the practical classes that will be held in primary classes

Key words: visual arts, visual arts, painting, persistence, ability, activity

**МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА
УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Аннотация: В данной статье высказаны мнения об особенностях обучения изобразительному искусству в начальных классах и творческой деятельности детей. Отмечается о занятиях по работе с краской и практических занятиях, которые пройдут в начальных классах.

Ключевые слова: изобразительное искусство, изобразительное искусство, живопись, настойчивость, способности, активность.

Ayni paytda yurtimizda turli san'at turlari rivojlanib kelmoqda. Xususan yurtboshimiz tomonidan san'atga bo'lgan katta e'tibor natijasida tasviriy san'at ham yanada rivojlanmoqda. Qadimiy san'at asarlari tiklanmoqda, qiymati bo'yicha baholanmoqda. Yanada yangi tasviriy san'at uslublari va janrlari o'rganilmoqda. Bunda biz ham hissa qo'sha olishimiz uchun berilgan imkoniyatlardan foydalana bilishimiz zarur. Bunda talaba va o'quvchi yoshlarda tasviriy tafakkurni shakllantirish va badiiy estetikani rivojlantirishimiz zarur. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga

xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi. Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma'lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1-2 minut, ko'pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmni tugallab qo'yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasa-da, biroq mazmunan biror yoshidagi n-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo'yoqlar bilan ishlash ularga ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi sababli ulardan foydalanishni xush ko'rmaydilar. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo'yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o'z ishlaridan ixloslari tez qaytadi. Bunday sharoitda o'qituvchining bolalarga tez yordam ko'rsatishi va kayfiyatini ko'tarishga harakat qilishi foydadan holi bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan yana biri ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo'lgan harakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini (uy, odam, kitob, soat, portfel) ayrimlarini yon tomonidan (mashina, hayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha v.b.), yana boshqalarini ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz v.b.) tasvirlaydilar. Bo'lajak o'qituvchilar talabalik yillaridan boshlab pedagogik tadqiqot unsurlari bilan shug'ullanadilar: — tasviriy san'atdan ko'rgazmali qurollar, individual mashg'ulotlarga didaktik materiallar, test-savollar, o'quvchilarni badiiy tayyorgarlik darajasini tahlil qilishadi, talabalar ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarda doklad, ilmiy maqola va ma'lumotlar bilan chiqishadi. Keyinchalik biron mavzuni chuqurroq o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishadi. Pedagogik tadqiqot jarayoni quyidagi qator bosqichlardan iborat. Ulardan har birining muayyan vazifalari mavjud. Adabiyotlar manbaini o'rganish jarayonida quyidagilar aniqlanishi kerak: — ishdagi muallifning asosiy g'oyasi, uning ishlanish muammosidagi pozitsiyasi; — an'anaviylikdan uning pozitsiyasi nima bilan farq qiladi, muammoni o'rganishda qanday yangilik kiritdi; — uning ishidagi mavzularda qanday asosiy savollar javobsiz qolganligi; — muammoning keyingi tadqiqotlarida qanday masalalarni hal qilish zarurligi. O'qituvchilarning ish tajribasini o'rganishda quyidagilar aniqlanishi kerak: — o'qituvchi qanday qiyinchiliklarga duch keladi; — qiyinchilik va kamchiliklarning sabablari.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar jarayonida bolalarda qat'iylik, faollik, o'z kuchiga ishonch hosil qilinadi, shuningdek, ijodkorlik, mustaqil fikr yuritish va ishlash qobiliyatlarini tarbiyalash yetakchi o'rinni egallaydi. Bu o'rinda o'quvchilar vazifani ko'rgazmali tarzda, obrazlar orqali idrok etishlari talab etiladi. Boshlang'ich sinflarda bo'yoq bilan ishlash mashg'ulotlarida ranglarning turli tus va

och-to'qligini farqlay bilishga, kerakli ranglarni tanlay olishga o'rgatish asosiy vazifadir. Bu sinflarda ko'proq guash, akvarel bo'yog'idan foydalaniladi va ularni esa aralashtirib ham ishlatish mumkin. San'atni idrok etishga boshlang'ich sinflarda maxsus soatlar ajratilmaydi. U rangtasvir kompozitsiyasi, naturaga qarab tasvirlash mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at asarlarini idrok etishga oid o'quv materiallari-o'quvchilarning amaliy ishlari bilan bog'liqdir. San'at asarlarining nusxalarini ko'rsatish va ular haqida so'zlab berish bolalarda san'atga qiziqishni orttiradi va shu sohada shug'ullanishga yo'llaydi. Asarlarni namoyish etishda bolalar unda ifodalangan asosiy fikr va qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tanishtiriladi. Rangshunoslik bo'yicha beriladigan nazariy bilimlar o'quvchilarga ranglar va uning nomlari, tuslari hamda ularning kishilar hayotidagi ahamiyati haqida bilimlar berishni vazifa qilib qo'yadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar asosan akvarel, guash bo'yoqlar bilan rasm ishlaydilar. Rangtasvir, dekorativ ishlarni bajarish jarayonida esa asosiy va hosila ranglar, ularning tuslaridan foydalangan holda ish olib borishlariga to'g'ri keladi. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'viriy san'atni o'qitish metodikasi, o'quvchilarga san'atning turli sohalarini va turlarini o'rganish va tushunishga qaratilgan o'quv usullarini o'z ichiga oladi. Bu metodika quyidagi bosqichlarga asoslangan bo'lishi mumkin: **Asosiy konspektlarni tushunish:** O'quvchilarga ta'viriy san'atning asosiy konseptlarini, masalan, rang, qiziqish, formalar, chizma, nuqtalar va boshqalar haqida tushuntirish. **Amaliy mashg'ulotlar:** O'quvchilarga ta'viriy san'atni o'rganish uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etish, masalan, qalamlar, bo'yalar yoki boshqa materiallar orqali rasm chizish, model qurish yoki asar yaratish. **Tarixiy kontekstda ta'svirlash:** Ta'sviriy san'at asarlarini tarixiy kontekstda o'rganish va tahlil qilish, mukammalroq tushunish uchun muhimdir. **Kollektiv ish:** O'quvchilarni guruh ishlari orqali ta'viriy san'atni o'rganishga olib kelish, ularning fikrlarini almashish va ko'rsatmalarini baham ko'rish. **Muvofiq ta'lim vositalaridan foydalanish:** Multimedia, internet, ma'lumotlar bazasi va boshqa ta'lim vositalaridan foydalanib, o'quvchilarni ta'viriy san'atning turli sohalariga kirib chiqish. **O'quvchilarning individual qobiliyatlariga e'tibor berish:** Har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini, ko'rinishini va tushunchalarini e'tiborli hisobga olgan holda ta'viriy san'atni o'rganish. Bu metodika o'quvchilarga ta'viriy san'atni o'rganishda ilg'or usullardan faqat ba'zi namunalardir. O'sha metodikani rivojlantirish va modifikatsiya qilish kerak bo'ladi, shuningdek o'quvchilarning qiziqtirganliklarini va qobiliyatlarini e'tiborli hisobga olgan holda darslarni tuzish juda muhimdir. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasida asosiysi - bu kafolatlangan natija bo'yicha imkoniyat,

shart-sharoit, vositalar, metodika va uslublar bo'lib, ularni tashkil etish - tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi va uning prinsiplarining asosiy vazifasiga kiradi. Chunki maktab tasviriy san'atini o'qitish didaktikasi har bir dars машғулоти uchun, eng avvalo, berilayotgan bilim-malakalarning ilmiy asosda bo'lishini ta'minlaydi. Ilmiylik prinsipi - o'quvchilarga rasmi chiziladigan natura, obyekt, mavzu, voqea-hodisalarni yoki tahlil qilinadigan san'at asari bo'yicha beriladigan har bir ma'lumotning ilmiy va fan ma'lumotlari asosida bo'lishini ta'minlaydi.

Tasviriy san'at o'quv fani o'ziga xos xarakteriga ko'ra, ko'rgazmasiz o'qitish mumkin bo'lmagan o'quv fani hisoblanadi. Maktabdagi tasviriy san'at darslarida: -“Og'zaki bayon etish” metodining suhbat, hikoya, savol-javob, ma'ruza kabi uslublaridan; -“Ko'rgazmali o'qitish” metodini namoyish etish, illustratsiya va reproduksiya bilan ishlash, doskadagi rasm va ekskursiya kabi uslublardan; -“Amaliy ishlar” metodining rasm ishlash, haykal ishlash, badiiy-amaliy san'at, kompozitsiyalar ustida ishlash, san'at asarlari tahlili, san'at asarlari yuzasidan insho, referat yozish kabi uslublardan foydalaniladi. Xulosa qilib aytganda, maktabda tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi o'zining oldindan belgilangan maqsadiga erishish uchun bu fanni o'qitish didaktikasi va metodikasidan a'lo darajada foydalana olishi o'qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at metodikasi. -T., «Ilm-Ziyo», 2006.
2. Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. -T., «Aloqachi», 2007.
3. Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. -T.: «Ilm-Ziyo», 2006.
4. Abdirasulov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. -T.; «O'zbekiston», 2006.
5. Qodirxo'jayev P. Badiiv bezak san'ati. -T., «Iqtisod-moliya», 2007.
6. Boymetov B.B., Abdirasilov S.F. Chizmatasvir. - T., «G'afur G'ulom», 2004.
7. Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. T., 1996.
8. S. Abdirasilov. Tasviriy san'at atamallari. T., 2003.
9. S. Abdirasilov, N. Tolipov. Rangtasvir. T., «Bilim», 2005.
10. B. Boymelov, S. Abdirasilov. Chizmatasvir. T., G'ulom nomidagi nashriyot, 2004.